



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**


**“O'ZBEK AMALIY FILOLOGIYASI
ISTIQBOLLARI”**

mavzusidagi

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi

materiallari

(2022-yil 26-oktabr)



Toshkent – 2022

O‘zbek amaliy filologiyasi istiqbollari / Respublika ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami. Elektron nashr / ebook. – Toshkent: ToshDO‘TAU, 26.10.2022. – 349 b.

Mazkur to‘plamdan amaliy filologiya sohasiga doir tadqiqot natijalari, O‘zbekistonda til siyosati va menejmentiga oid masalalar, zamonaviy leksikografiya va milliy terminologiya muammolari, kompyuter va korpus lingvistikasining nazariy-amaliy masalalari tadqiqi, lingvistik ekspertiza manbalari, terminologik lug‘atlarni yaratishga oid materiallar joy olgan.

Ushbu ilmiy to‘plamdan amaliy filologiya sohasi mutaxassislari, tadqiqotchilar, magistrantlar va sohaga qiziquvchi talabalar foydalanishlari mumkin.

Mas’ul muharrir:

B.R.Mengliyev – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Amaliy filologiya kafedrasini mudiri, filologiya fanlari doktori, professor.

Taqrizchilar:

S.X.Muhamedova – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti O‘zbek tili ta’limi fakulteti dekani, filologiya fanlari doktori, professor.

I.X.Islomov – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Amaliy filologiya kafedrasini dotsenti v.b., filologiya fanlari doktori.

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O‘ZBEK AMALIY FILOLOGIYASI
ISTIQBOLLARI**

mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
materiallari

(2022-yil 26-oktabr)

Toshkent – 2022

TASHKILY QO'MITA

Sirojiddinov Shuhrat Samariddinovich (Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti)

Jamoliddinova Odinaxon Rustamovna (O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi)

Hamroyev G'ofir Hasanovich (O'zR Vazirlar Mahkamasining Ma'naviyat va davlat tilini rivojlantirish masalalari departamenti)

Karimov Suyun Amirovich, (Samarqand davlat universiteti)

Mengliyev Baxtiyor Rajabovich (Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti)

Muhamedova Saodat Xudoyberdiyevna (Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti)

Jo'raqo'ziev Nodir Imomqo'ziyevich (Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti)

Zaripov Rafiqjon Ergashboy o'g'li (Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti)

TAHRIR HAY'ATI

Mengliyev Baxtiyor Rajabovich

Islomov Ikrom Xushboqovich

Zaripov Rafiqjon Ergashboy o'g'li

Gulyamova Shaxnoza Kaxramonovna

Murtazayev Abror Odilovich

Musulmonova Kamola Husniddin qizi

Elova Dilrabo Quدراتillayevna

Sobirova E'zoza Shuxrat qizi

O‘ZBEK AMALIY FILOLOGIYASI ISTIQBOLLARI

DISFEMIZM TUSHUNCHASI VA UNING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Jo‘raeva Nilufar

Buxoro davlat universiteti o‘qituvchisi. juraeva-nilufar@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada disfemizm tushunchasi, tilshunos olimlarning bu tushuncha xususidagi fikr-mulohazalari, uning pragmatik xususiyatlari haqida so‘z boradi. Shuningdek, disfemiya hodisasi, uning xarakterli xususiyati, disfemiya diskursiv hodisasi, disfemizm esa ham til, ham nutq hodisasi ekanligi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: disfemizm, evfemizm, disfemiya, kakofenizm, ortofemizm.

Abstract. This article talks about the concept of dysphemism, the linguists' opinions about this concept, its pragmatic features. The phenomenon of dysphemia, its characteristic features are also discussed. Dysphemia is said to be a discursive phenomenon, while dysphemism is both a linguistic and a speech phenomenon.

Key words: dysphemism, euphemism, dysphemia, cacophenism, orthothemism.

Har bir tilda ixtiyoriy yoki g‘ayri ixtiyoriy ravishda qo‘llanilmaydigan, chetlab o‘tiladigan so‘zlar mavjud. Ularning aksariyati so‘zlovchi, qolaversa, tinglovchi tomonidan «yoqimsiz», «qo‘pol» deb hisoblanadigan so‘zlardir. Bugungi kunda o‘zida salbiy ma‘noni ifodalovchi so‘zlarning soni tobora ortib bormoqda. Bu esa tilshunoslikda «disfemizm» deb ataladigan tushunchaning mohiyati, paydo bo‘lish sabablarini o‘rganishga ehtiyoj tug‘diradi. Nutq qo‘pollashuvining bir necha sabablari mavjud. Sotsiolog va sotsiolingvistlarning qayd qilishicha, «hayotning turli sohalarida ijtimoiy guruhlar o‘rtasidagi tabaqalanishning chuqurlashishi, manfaatlar to‘qnashuvi, bir guruhning boshqa guruh ustida hukmronlik qilish istagining mavjudligi» nutqning qo‘pollashishiga olib keldi [Kvaskova, 2016:353].

Bugungi kunda disfemizmlarning shakllanishi va qo‘llanilishining umumiy qonuniyatlari haqida to‘liq va tugal nazariya mavjud emas. Tilshunos olima A.N.Rezanova disfemizmlarning chuqur o‘rganilmaganlik sababini «axloqiy normalarga zid tushuncha» deb izohlaydi. Disfemizmlar og‘zaki nutqda keng tarqalganligiga qaramasdan adabiy nutqda ularning qo‘llanilishi ta‘qiqlangan, bu esa ularning o‘rganilishiga ta‘sir etmay qolmaydi. Ushbu hodisaning eng muhim jihatlari, ya‘ni «disfemiya pragmatikasi – kelib chiqish sabablari, ijtimoiy-tarixiy va psixologik tarqalishi o‘rganilmay qolishiga olib keladi» [Rezanova, 2008:3]. Olima L.V. Kvaskovaning fikricha, «og‘zaki nutqda salbiy ko‘rinishdagi so‘zlarning kelib chiqishiga qarshi kurashish uchun ularning lingvistik va funksional tabiatini batafsil o‘rganish [Kvaskova, 2016:353].

O‘ZBEK AMALIY FILOLOGIYASI ISTIQBOLLARI

«Disfemizm» atamasini izohlash uchun leksikografik manbalarga murojaat qilamiz:

Olima V.N.Yartseva tomonidan tahrir qilingan lug‘atda disfemizmga shunday izoh beriladi: «emotsional va stilistik jihatdan neytral so‘zni qo‘pol, iltifotsiz so‘zlar bilan almashtirish» [Yartseva, 1998:590].

T.V. Matveeva o‘z maqolasida disfemizm to‘g‘risida kengaytirilgan ta‘rifni beradi: disfemizm – «emotsional holatni qo‘pol ravishda bildirish, stilistik jihatdan neytral so‘z yoki iborani qo‘pol so‘z, ibora bilan almashtirish». Muloqot jarayonida so‘zlovchi o‘z suhbatdoshini kamsitish, tahqirlash, obro‘sizlantirishni maqsad qiladi. Bunda nutq qoidalari buziladi, munosabatlarda beadablik, hayosizlik kuzatiladi [Matveeva, 2010:95].

Bu ta‘riflardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, har bir disfemizm uchun stilistik jihatdan uning neytral sinonimi mavjud. Biroq olim L.V. Poroxnitskaya o‘z maqolasida bu neytral so‘zni har doim ham evfemizm, disfemizm, ortofemizmdan chegaralab bo‘lmasligini ta‘kidlaydi [Poroxnitskaya, 2013:143].

Disfemizمنى siyosat sohasida tadqiq qilgan olim T.N. Abakova disfemizatsiyani istalgan pragmatik effektga erishish va auditoriyaga maqsadli ta‘sir qilish uchun ishlatilishi mumkin bo‘lgan taktik til vositasi sifatida tushunish mumkin degan xulosaga keladi [Abakova, 2013:27].

O‘z navbatida, olim A.N. Rezanova, disfemizm deganda, biror maqsadni ko‘zlab nutq vaziyatiga nomuvofiq, shuningdek, kommunikativ vazifani hal qilish uchun to‘g‘ri kelmaydigan tabulashgan til shakllarini, o‘zida kamsitish ma‘nosini ifodalaydigan yoki salbiy bahoga ega bo‘lgan neytral leksikaning ishlatilishini tushunadi [Rezanova, 2008:8].

Olima disfemiyaning xarakterli belgisi sifatida denotatning saqlanishini, o‘zgarish faqat konnotativ komponentda sodir bo‘lishini ta‘kidlaydi. Bu borada tilshunos olim L.Mosievich misolini ko‘rib chiqamiz: *C. Берлускони в разговоре об избранном президенте США Обаме пошутил насчет его «загорелости», что было намеком на цвет кожи афроамериканца.* – (S.Berluskoni AQShning saylangan prezidenti Obama haqidagi suhbatda uning «qoraygani» haqida hazillashdi, bu esa afro-amerika terisi rangiga qilingan ishora edi.) Mazkur holatda, konnotativ neytral belgi (zagorelost-oftobda qoraymoq) kontekstda salbiy ma‘no kasb etadi va disfemizmlar guruhiga kiradi [Mosiyevich, 2009:359].

Disfemiya – diskursiv hodisa, disfemizm esa ham til (biror leksik birlikni boshqasi bilan almashtirish), ham nutq hodisasi (biror kommunikativ vazifani bajarish uchun almashtiruv vositasi).

Disfemiya hodisasi xuddi evfemiyadek kabi chuqur o‘rganilmagan, shuningdek fransuz tilshunosligida ham mazkur tushuncha alohida tadqiq obyekt bo‘lmagan. Fransuz tilida «disfemizm» tushunchasining etimologiyasiga murojaat qilganimizda, ushbu ma‘lumotni ko‘rib chiqdik: *La notion du Xxe siècle, construit sur le modèle de euphémisme par substitution du préfixe dys- au préfixe eu-. Mot de formation savante forgé à partir du grec ancien δυσφημισμός, dysphêmos* («

O‘ZBEK AMALIY FILOLOGIYASI ISTIQBOLLARI

emploi d’un mot défavorable»), composé de *δυσ*, *dys* («difficile, mauvais, négatif») et de *φήμη*, *phêmi* («parole»).

XX asrga aloqador atama bo‘lib, qadimgi yunoncha ikki tarkib – «*dys*» - «*qiyin, yomon, salbiy*» «*phêmi*» – «*men gapiraman*» dan iborat. Eufemizmga teskari ravishda «*yomon nutq*» ma’nolarini anglatadi.

Ispan tilshunos olimi *Da Silva Korrea* disfemizm tushunchasini «*cacofemismo*», «*contra-eufemismo*», «*anti-eufemismo*» deb nomlaydi [*Da Silva Korrea, 1927: 445-787*]. Tilshunos olim *Grant* esa disfemizmni o‘zida barcha yomon illatlarni, jumladan, qo‘pollik, nafrat, masxara qilish, kufr va h.k.larni jamlagan «*mot fort*» – «*kuchli so‘zlar*» yoki «*malphemism*» – «*yomon so‘zlamog‘*» deb sifatlaydi [*Grant, 1977:246-253*].

Demak, disfemizm yagona shaklni qabul qilmaydi, faqatgina odobdan tashqari, vulgar, axloqsiz so‘zlar bilangina chegaralanib qolmaydi. Ya’ni disfemizmni qo‘pol, dag‘al, vulgar nutqning, o‘zida noxushlikni ifodalaydigan so‘z va iboralarning mahsuli deb qarash noto‘g‘ri bo‘ladi. Kontekst(matn) orqali disfemizmni belgilash maqsadga muvofiq bo‘ladi. Misol uchun bir so‘zni qat’iy disfemik so‘z deb oladigan bo‘lsak, bu barcha kontekstual holatlarda o‘zini oqlamasligi mumkin :*1. Dans de nombreuses propriétés, les bêtes commencent à mourir en raison du manque d’eau* [*Le Monde (2002)*]. – (*Кўплаб жойларда сув танқислиги сабабли ҳайвонлар ҳалок бўлишияпти.*)

2. *Et voyez maintenant comme elle aime les bêtes!* [*Alphonse de Lamartine (1790-1869)*] – (*Энди кўряписизми, у жониворларни қандай яхши кўради.*)

3. *Elle n’est pas bête, elle est loin d’être bête.* – (*У ахмоқ эмас, у умуман ахмоқликдан йироқ.*)

4. *“Quelle bête es-tu?”* – (“*Нақадар ахмоқсан?*”)

5. *“Elle aime toujours chercher la petite bête dans mon travail!”* – (“*У ҳар доим менинг ишимдан хатолик топишни яхши кўради!*”)

6. *Cette femme est sa bête noire!* – (*Бу аёлни у ёмон кўради!*)

7. *Elle a un caractère de cochon.*(*avoir un sale caractère*) – (*Унинг характери чўчқа монанд.*)

Yuqoridagi misollarda ayni bir so‘zning turli kontekstda turlicha ma’no kasb etishini, disfemik ma’no matn holatiga qarab belgilanishini kuzatish mumkin.

Shunday qilib, disfemizmning asosiy vazifasi biror yoqimsiz narsa yoki hodisaga e’tiborni qaratishdan iborat bo‘lib, disfemiya – stilistik jihatdan salbiy bo‘yoqdor yoki neytral so‘zlarni suhbatdoshni ataylab kamsitish, uni obro‘sizlantirish yoxud biror aniq vaziyatda norozilik, mensimaslik, nafratlanish kabi munosabatlarni ifodalash maqsadida ishlatiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Glossaire des termes grammaticaux et rhétoriques: [сайт].– URL: <https://www.greelane.com/fr/sciences-humaines/anglais/dysphemism-words-term-1690489/> (дата обращения: 10.09.2022).

O‘ZBEK AMALIY FILOLOGIYASI ISTIQBOLLARI

2. Grant, Louis T., « Public doublespeak: Badge language, realityspeak, and the great watergate euphemism hunt », College English, 39, 2, 1977, – P. 246-253.
3. Jo‘rayeva N. Evfemizmlarning lingvomadaniy xususiyatlari //центр научных публикации (buxdu. Uz). – 2021. – т. 8. – №. 8.
4. Jo‘rayeva N. Evfemizm lingvokulturologik fenomen sifatida //центр научных публикации (buxdu. Uz). – 2021. – т. 8. – №. 8.
5. Jo‘rayeva N. Zamonaviy fransuz tilshunosligida evfemizm va tabu hodisalari to ‘g’risidagi nazariy qarashlar //центр научных публикации (buxdu. Uz). – 2021. – т. 8. – №. 8.
6. Jo‘rayeva N. Evfemizm, yohud yumshoq muomala fransuz ayollari talqinida //центр научных публикации (buxdu. Uz). – 2020. – т. 6. – №. 2.
7. Jo‘rayeva N. S. Evfemizmlarning lingvomadaniy xususiyatlari //экономика и социум. – 2021. – №. 1-1. – с. 107-110.
8. Jo‘rayeva N. Types des niveaux du langage dans les pays francophones //центр научных публикаций (buxdu. Uz). – 2021. – т. 8. – №. 8.
9. Jo‘rayeva N. Les particularités de l’enseignement des langues étrangères //центр научных публикации (buxdu. Uz). – 2021. – т. 8. – №. 8.
10. Jo‘rayeva N. Evfemizmlarning gender xususiyatlari xususida //центр научных публикации (buxdu. Uz). – 2021. – т. 8. – №. 8.
11. Jo‘rayeva N. Chet tilini o‘qitishda zamonaviy yondashuvlar //центр научных публикации (buxdu. Uz). – 2021. – т. 8. – №. 8.
12. Silva Correia, João Da, O eufemismo e o disfemismo na língua e na literatura portuguesa, Arquivo da Universidade de Lisboa, 1927, – P. 445-787.
13. Shukhratova J. N. UDC: 81.373. 49 316.754. 6 The main areas (spheres) of euphemisms and taboos in french linguistics //scientific reports of bukhara state university. – с. 134.
14. Абакова Т. Н. Дисфемизмы и эвфемизмы как способ языкового воплощения стратегии дискредитации в текстах политической сферы (на материале англоязычной прессы) // Аналитика культурологии. – 2013. – №27.
15. Жўраева Н. Особенности эвфемизма во французском языке //центр научных публикаций (buxdu. Uz). – 2021. – т. 8. – №. 8.
16. Жўраева Н. Кўп тилли параллел корпуслар хусусида //центр научных публикации (buxdu. Uz). – 2021. – т. 8. – №. 8.
17. Жўраева н. Туркий тилларда морфологик анализатор: тадқиқот ва тажрибалар //центр научных публикации (buxdu. Uz). – 2021. – т. 8. – №. 8.
18. Кваскова Л. В. Дисфемизация речи как коммуникативная тактика в дискурсе // Преподаватель XXI век. – 2016. – Т. 3. – №. 2. – С. 353.
19. Матвеева Т. В. Полный словарь лингвистических терминов / Т. В. Матвеева. – Ростов н/Д. : Феникс, 2010. – 95 с.
20. Мосиевич Л. Дисфемизмы и языковая картина мира // Наукови записки [Кіровоградського державного педагогічного університету імені Володимира Винниченка]. Сер.: Філологічні науки. – 2009. – №. 81 (3). – С. 359.

O‘ZBEK AMALIY FILOLOGIYASI ISTIQBOLLARI

21. Порохницкая Л. В. Эвфемистический потенциал в парадигматике (к вопросу о разграничении эвфемизмов и смежных языковых явлений) // Вестник Московского гос. лингвистического ун-та. – 2013. – №. 1 (661). – С. 143.

22. Резанова А. Н. Понятие о речевой норме и стандартах в контексте проблемы дисфемии в речи // Известия Российского государственного педагогического университета им. А. И. Герцена. – 2008. – №. 51. – С. 3.

23. Языкознание. Большой энциклопедический словарь / гл. ред. В. Н. Ярцева. – 2-е изд. – М. : Большая Российская энциклопедия, 1998. – С. 590.

O‘ZBEK AMALIY FILOLOGIYASI ISTIQBOLLARI

MUNDARIJA

TABRIK SO‘ZI

Sirojiddinov Sh. Amaliy filologiya sohasi istiqboli va ta’limi masalalari ...	5
1. SHO‘BA. O‘ZBEKISTONDA TIL SIYOSATI VA MENEJMENTI	
Mengliyev B. O‘zbekistonda o‘zbek tilining tabiiy holati.....	8
Zaripov R. Til siyosati va menejmenti komponentlari.....	11
Hakimov M., Po‘latova G. Davlat tili va me’yoriy hujjatlar.....	15
Tojiyeva G., Niyazov S. O‘zbek zamonaviy tilshunosligida adabiy til talqini davr talabi sifatida.....	21
Norova S., Zaripov R. Davlat tilining qonun hujjatlarida qo‘llanilishi.....	26
Safarova G., Zaripov R. Jahon mamlakatlarida til siyosati va til boshqaruvi.....	31
2. SHO‘BA. ZAMONAVIY LEKSIKOGRAFIYA VA MILLIY TERMINOLOGIYA MUAMMOLARI	
Islomov I. O‘zbek tili milliy korpusi uchun geografik terminlar tizimi tasnifini amalga oshirishga doir.....	35
Bobojonov Sh. O‘zbek tili fe‘llarining lisoniy ma’nosi va uning nutqiy voqelanish vosita hamda omillari.....	37
Mahmudov R. Ogahiy tarixiy asarlarida individual uslub bilan bog‘liq o‘zlashmalar.....	46
Turdimurodov S. Frazeologik evfemik birliklar va ularning ayrim xususiyatlari.....	53
Abdurashidova S. O‘zbek va ingliz tillarida yangi so‘z hosil bo‘lishi yo‘llari.....	60
Axmedova D. Semantik kengaytmada bir sememali va ko‘p sememali leksemalarning ifodalanishi.....	63
Yuldashev F. “Ma’naviyat” va “mafkura” leksemalarining integral va differensial xususiyatlari.....	66
Shukurov O. Yangi davr o‘zlashmalarining semantik taraqqiyoti xususida..	72
Turdaliyeva D. Paremiyalarda modallik munosabatlarining ifodalanishi....	78
Islomova Sh. Qashqadaryo qipchoq shevasiga oid frazeologizmlar.....	81
Bobojonova Sh. O‘zbek tilidagi “axloq” umumiy semali atov birliklarining ensiklopedik lug‘atda berilishi.....	86
Shirinova M. Kino tilidagi “vasvasagin” va “sevginator” yasalmalari xususida.....	89
Karimova X. O‘zbek tilida “jasorat” umumiy semali atov birliklarining tarixiy-etimologik xususiyatlari.....	93
Islomova Sh. Qashqadaryo qipchoq shevasi frazeologizmlari antonimiyasi..	96
Sobirov M. O‘quv izohli lug‘atlar masalasiga doir.....	100
Tursunova D. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”dagi ba’zi folklorizmlarning funksional-semantik va uslubiy xususiyatlari.....	103

O‘ZBEK AMALIY FILOLOGIYASI ISTIQBOLLARI

Eshboyeva Sh. Bandixon tumani shevasiga oid dialektal so‘zlar to‘g‘risida.	108
3. SHO‘BA. KOMPYUTER VA KORPUS LINGVISTIKASINING AMALIY MASALALARI	
Hamroyeva Sh. Lug‘aviy shakl yasovchi qo‘shimchalarning ot so‘z turkumidagi qurshovi va lingvistik modellashtirish xususida.....	113
Gulyamova Sh. Semantik analizator uchun polifunksional so‘zlarni farqlashning lingvistik omillari.....	117
Abdullayeva O. O‘zbek tili korpusida matnlarni sintaktik annotatsiyalash masalasi.....	122
Xolova M. Dialektal korpusning fonetik metarazmetkasi haqida ayrim qaydlar.....	127
Xidirov O. So‘z birikmalarini lisoniy-sintaktik qoliplar asosida sintaktik teglash.....	136
Elova D. Tabiiy tilni qayta ishlash tizimlari.....	140
Tangriyev V. Types of parallel corpora according to application.....	149
Xusainova Z. NLP: tokenizatsiya, stemming, lemmatizatsiya va nutq qismlarini teglash.....	154
Axmedova X. Chastotali usul yordamida omonimiyani aniqlash.....	164
Xonnazarov E. -Gan/-kan/-qan zamon shaklini korpusda annotatsiyalash...	171
Karimov S., Tursunov M., Xolmuxamedov B. O‘zbek tili milliy korpusi uchun matnlarni formatlash dasturlari.....	179
Salomov A. Mashina tarjimasini uchun o‘zbek-ingliz tillari sinonimlari bazasini yaratish prinsiplari.....	185
Suyunova M. Grammatik omonimlarni modellashtirish xususida.....	189
Samatboyeva M. Mashinaviy o‘qitish yordamida matnlarda ner obyektlarni tanib olish metodlari.....	195
Mahmudjonova G. O‘zbek tilida lemmatizatsiya hodisasi. lemmatizatsiya va stemmingni farqlash.....	200
Nizomova Z. Terminologik tezauruslar va ularning ahamiyati.....	203
Raxmonova M. Kompyuter lingvistikasi rivoji va sintaktik analizator yaratish masalasi.....	208
Xolmonova I. Ikki tilli parallel korpusning chet tilini o‘rganishdagi ahamiyati.....	212
Uzoqova M. O‘zbekcha sinonimayzer dasturini takomillashtirishda qisman ma’noli sinonimlarni aniqlash metodi.....	215
4. SHO‘BA. LINGVISTIK EKSPERTIZA MASALALARI	
To‘rayeva D. Og‘zaki nutqning lingvistik ekspertizasi.....	220
Musulmonova K. Inson yozma nutqida identifikatsion alomatlarining yuzaga kelishi.....	224
Suvonov Z. Badiiy matnni lingvistik ekspertiza qilishning metodologik muammosi.....	229
Xotamova G. Shaxsiy yozishmalarda o‘smir qizlar yozma nutqining topografik xususiyatlari.....	234

O‘ZBEK AMALIY FILOLOGIYASI ISTIQBOLLARI

Soliyeva N. Lingvistik ekspertizada “da’vat” tushunchasi tahlili.....	240
Najmiddinova N. Haqorat tushunchasi va uning lingvistik ekspertizasi.....	243
Suvonov Z. Badiiy matn lingvistik ekspertizasining metodologik asoslari..	246
Umrzaqova G. Muammoli yozishmalarda tahdidga doir so‘zlarning lingvistik ekspertizasi.....	252
Nosirova Sh. Lingvistik ekspertizada shaxsni obro‘sizlantirish tushunchasi	257
Sultonova E. Turli ziddiyatli matnlarni lingvistik ekspertiza qilish asoslari	261

5. SHO‘BA. AMALIY FILOLOGIYA MUAMMOLARI YOSH TADQIQOTCHILAR NIGOHIDA

Zaripov R. Amaliy filologiya yo‘nalishi talabalarining tanishuv amaliyotini tashkil etish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar.....	263
Bakiyeva X. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqi va tafakkurini o‘stirish — til ta‘limining dolzarb muammosi sifatida.....	268
G‘ulomova X. Grammatik mavzularni o‘rganish jarayonida o‘quvchilarni faollashtirish.....	272
Jo‘raeva N. Disfemizm tushunchasi va uning pragmatik xususiyatlari.....	276
Xo‘jayev N. Abdulla Oripov she‘riyatidagi personaj nutqining gender xususiyatlari.....	281
Khidirova G. Cultural differences of words ‘gratitude’ and ‘apology’ in english and their counterparts in uzbek.....	286
Juraev N. Teaching composition writing.....	289
Po‘latova S. O‘zbekiston davlat madhiyasida “g‘urur” konseptining ifodalanishi.....	293
Qudratova M. Asqar Mahkam she‘riyatida vatan mavzusi.....	296
Rajabova M., Nematullayeva M. Nodira g‘azallarining nashrlariga doir mulohazalar.....	300
Boltayeva N. Tabassum – noverbal aloqa vositasi.....	304
Barotova M. Muloqotda barmoq ishtirokidagi o‘zbekona paralingvistik vositalarning ahamiyati.....	308
Nurmurotov I. Dastlabki punktuatsion belgilarning shakllanishi.....	313
Abdumannatova N. “Hotamnoma” asarining lingvofolkloristik tahlili.....	317
Egamberdiyev F. Holat bildiruvchi sifatlarning o‘zbek tilida o‘rganilishi..	320
Allanazarova F. O‘zbek hikoyachiligida yangilik va an‘ana.....	325
Yo‘ldosheva D. Til birligida taqlid so‘zlar.....	329
Turopova H. O‘zbek tilshunosligida xalq maqollari lingvistik tadqiqi masalalarining o‘rganilishi.....	332
Худайбердиева И. Сложности в различии падежей русского и узбекского языков.....	338
Ibrohimova M. Harakat nomi va infinitivning qiyosiy tahlili.....	344

